



Received: June 2, 2025
Accepted: August 22, 2025
Available online: August 25, 2025

Dilnoza Rashidova

Tayanch doktorant
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Denov, O'zbekiston

INGLIZ TILIDAGI ISLOMIY DISKURSDA DINIY VA MADANIY REALIYALARNING LINGVISTIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot ingliz islomiy diskursida uchraydigan diniy va madaniy realiyalarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ingliz islomiy diskursida realiyalarning qanday ifodalanishi, leksik-semantik tahlili, tarjima muammolari va tarjima qilinish uslublarini o'rganishni maqsad qiladi. Diniy-publitsistik matnlar, xususan, ingliz musulmon ulamolarining va'zlari va diniy-publitsistik maqolalari asosida olib borilgan tahlilning asosiy vazifalari ingliz islomiy diskursida uchrovchi realiyalarning asosiy lingvistik jihatlarini ajratib ko'rsatish, ushbu realiyalarning semantik va leksik xususiyatlarini aniqlash, ularni tarjima strategiyalari va semantik nuqtai nazardan tasniflash va g'arbiy auditoriyaga mo'ljallangan tarjimalarda madaniy kontekst muhimligini yoritib berishdan iborat.

Maqolada realiyalar leksik-semantik, konnotativ va kontekstual jihatidan o'rganilib, ularning ingliz tilidagi ifodalansih shakllari (transliteratsiya, madaniy moslashtirish, izohli tarjima va ekvivalent almashtirish) bo'yicha tahlil qilingan. Tadqiqotda asosiy metod sifatida leksik-semantik tahlil qo'llanildi. Ushbu metod orqali realiyalarning ingliz tilidagi shakli, ularning ma'nodosh ekvivalentlari va tarjima variantlari aniqlab olindi. Har bir realiya konkret kontekstda tahlil qilinib, ularning asl shakli (transliteratsiya), tarjima turi (ekvivalent yoki izohli) aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki islomiy kontekstda kanonlik xususiyatidan kelib chiqib ham har bir konseptni ifodalashda tarjimon, yozuvchi yoki va'zxondan yuqori bilim va sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

Dilnoza Rashidova

PhD Student
Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Denau, Uzbekistan
E-mail: d.rashidova@dtpi.uz
ORCID iD: 0009-0004-1386-5078

LINGUISTIC ANALYSIS OF RELIGIOUS AND CULTURAL REALIA IN ENGLISH ISLAMIC DISCOURSE

ABSTRACT

This research is devoted to the linguistic analysis of religious and cultural realia found in English Islamic discourse, aiming to explore how these realia are represented, their lexical-semantic features, translation challenges, and strategies applied in their translation. The analysis is based on religious-publicistic texts, particularly the sermons and articles of English-speaking Muslim scholars. The main objectives of the study are to identify the key linguistic characteristics of realia in English Islamic discourse, classify them from the perspective of translation strategies and semantic approaches, and highlight the importance of cultural context in translations intended for Western audiences.

Realia are examined from lexical-semantic, connotative, and contextual perspectives, and their English representations are analyzed through four forms: transliteration, cultural adaptation, explanatory translation, and equivalent substitution. The primary method is lexical-semantic analysis, which enabled identifying English forms of realia, their equivalents, and translation variants. Each realia item was analyzed in specific context, specifying its original form (transliteration) and type of translation (equivalent or explanatory).

The findings reveal that, given the canonical nature of Islamic context, both translators and preachers must approach each concept with deep knowledge and care. The study concludes that in English-language sermons and religious-popular texts, cultural adaptation is more effective than literal translation for conveying Islamic concepts

Tadqiqot xulosasiga ko'ra, ingliz tilidagi va'zlar va diniy-ommabop matnlarda diniy realiyalarning bayon etilishida literal yondashuvga qaraganda, madaniy moslashtirish va izohlash strategiyasi g'arbiy auditoriyaga islomiy tushunchalarni aniq va tushunarli tarzda yetkazishda samaraliroq hisoblanadi. Ingliz islomiy matnlarida literal tarjima ko'p hollarda ma'no va madaniy konnotatsiyalarni yetkazishda yetarli bo'lmaydi. Madaniy moslashtirilgan va qo'shimcha izohlar berish strategiyalari esa g'arb auditoriyasiga diniy tushunchalarni aniq, mantiqan izchil va madaniy mos shaklda yetkazishda samaraliroq bo'lib chiqadi. Xulosa tariqasida, diniy realiyalar tarjimasida matnning turi va maqsadi inobatga olinishi lozim, shunda ma'no, madaniylik va tushunarlilik o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: islomiy diskurs, realiyalar, diniy realiya, madaniy realiya, semantik tasnif, tarjima strategiyalari, diniy kontekst, ingliz auditoriyasi, islomiy va'zlar, ommabop matn.

KIRISH

XXI asrda ingliz tili global aloqa vositasi sifatida nafaqat dunyoviy, balki diniy diskursda ham faol qo'llanilmoqda. Ayniqsa, islomiy qadriyat va g'oyalarni ingliz tilida ifodalash ehtiyoji oshgani sababli ingliz islomiy diskursi shakllanmoqda va rivojlanmoqda. Bunda musulmon jamiyatiga xos realiyalarning ingliz tilida adekvat tarzda aks ettirilishi muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola ingliz islomiy diskursida uchrovchi realiyalarni aniqlash, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish va tarjima jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolarni yoritishga qaratilgan.

Metodologik yondashuv sifatida lingvokulturologiya nazariyasi hamda tarjima nazariyasidagi asosiy tamoyillar (M.Beyker, A.Fyodorov, I.V.Arnold, E.Sepir va B.Uorf gipotezasi)ga tayanilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda ingliz tilidagi zamonaviy islomiy diskurs realiyalari ilk bor kompleks tarzda semantik va tarjima strategiyalari asosida tasniflanadi va tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada realiyalarning semantik va kommunikativ yuklamasi hamda ularning madaniy adekvatlik darajasi ham baholangan.

Realiyalar va, xususan, islomiy realiyalarni tadqiq etish bo'yicha bir qator muhim ishlar mavjuddir. S.Vlaxov va S.Florin realiyalarni tarjima nazariyasining markaziy muammosi sifatida ko'rib chiqib, ularni turlarga ajratgan va tarjima usullarini ishlab chiqqan bo'lsa [Vlaxov & Florin, 1970], P.Nyumark esa o'zining "A Textbook of Translation" asarida realiyalarning tarjimadagi o'rnini ko'rsatib, transliteratsiya va izoh berishni asosiy usul sifatida taklif qilgan [Newmark, 1988]. H.Gazala islomiy realiyalar tarjimasini haqida alohida to'xtalib, kontekstga mos tarjima qilish zaruriyatini ta'kidlagan [Gazala, 1995]. M.Beyker esa diniy va madaniy realiyalarni tarjima

clearly to Western audiences. Literal translation often fails to deliver intended meaning and cultural connotations, while cultural adaptation and explanatory translation ensure clarity and coherence.

In conclusion, when translating religious realia, the type and purpose of the text must be considered to maintain balance between meaning, cultural adequacy, and clarity.

Key words: Islamic discourse, realia, religious realia, cultural realia, semantic classification, translation strategies, religious context, English audience, Islamic sermons, popular text.

qilishdagi pragmatik strategiyalarni ishlab chiqqan [Baker, 1992]. Islomiy diskursdagi realiyalarni ingliz tilida o'rganishga doir tadqiqotlar, asosan, islomiy tarjima nazariyasi doirasida olib borilgan. Jumladan, A.Xarabsheh Qur'on realiyalarining ingliz tiliga tarjimasini muammolarini ko'rsatgan [Kharabsheh, 2002]. Tilshunos A.Xalifa esa o'z ilmiy maqolasida diniy diskursdagi madaniy realiyalar tarjimasini haqida ilmiy fikrlarni bildirgan [Khalifa, 2005]. A.Xalifaning aytishicha, lingvistik ekvivalentlik ko'pincha pragmatik va madaniy ekvivalentlikni ta'minlay olmaydi. Shuning uchun tarjimon nafaqat lug'aviy ma'noni, balki uni o'quvchiga tushunarli va madaniy jihatdan mos tarzda yetkazishni maqsad qilishi kerak. N.Abdulal esa madaniy konnotatsiyalar tarjimasida ayniqsa ekzotizmlarda o'z holicha saqlash (translitetasiyaga yaqin), tushirib qoldirish, evfemistik ibora yordamida tarjima qilish usullarini taklif qiladi [Abdelaal, 2019].

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda ingliz islomiy diskursida uchraydigan diniy va madaniy realiyalarning tarjima va lingvistik xususiyatlarini aniqlash uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Dastlab, tadqiqot obyekti sifatida ingliz tilidagi zamonaviy islomiy matnlar tanlab olindi. Ular orasida musulmon ulamolarining va'zlari, ilmiy-ommabop islomiy diniy matnlar va maqolalar tanlab olindi. Ma'lumotlar tanlashda matnning diniy diskursga oidligi, ishonchliligi, keng auditoriyaga mo'ljallanganligi va ingliz tilida erkin tarqalgan bo'lishi inobatga olindi va shu asosda quyidagi mualliflar tanlab olindi:

1) Dr. Jonatan Braun – amerikalik islomshunos va hadisshunos olim bo'lib, Jorjtaun universitetida diniy tadqiqotlar bo'yicha professor sifatida faoliyat yuritadi. U hadislarni tizimli tahlil qiluvchi ko'plab kitob va maqolalar muallifi bo'lib, asarlari akademik jurnallarda chop etilgan va universitetlarda dars materiali sifatida qo'llaniladi. Shu sababli, J.Braunning hadisga oid asarlarini ilmiy tadqiqotlarda iqtibos sifatida keltirish asosli va ishonchli hisoblanadi. 2) John L.Espositoning *What Everyone Needs to Know About Islam* (2003) asari, Oksford universiteti nashriyoti tomonidan chop etilgan bo'lib, dunyo miqyosida eng ko'p iqtibos keltiriladigan ilmiy qo'llanmalardan biridir. Esposito – Jorjtaun universitetida Islom tadqiqotlari bo'yicha professor va “Shahzoda Al-Valeed bin Talal nomidagi musulmon va xristianlar o'rtasidagi tushunishni rivojlantirish markazi” asoschisi va direktori. Uning ilmiy darajasi – Ph.D., u 40 yildan ortiq vaqt mobaynida islomshunoslik, dinlararo muloqot va musulmon jamiyatlarini o'rganish sohalarida izlanish olib borgan. Shu sababli bu asar maqola uchun terminologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda realiyalarni aniqlashda akademik ishonchlilikni ta'minlaydi.

3) Yana bir manba – Yasir Qadhining ingliz tilidagi va'zlari bo'lib, Yasir Qadhi AQShning eng nufuzli va qadimiy universitetlaridan biri Yale universitetida islomshunoslik bo'yicha Ph.D. (doktorlik) darajasini olgan bo'lib, hozirda *The Islamic Seminary of America* diniy ta'lim muassasasiningning dekani va Texasdagi “Sharqiy Plano Islom markazi”ning doimiy ilmiy hodimi sifatida faoliyat yuritadi. U islomiy bilimlarni keng ommaga yetkazish bo'yicha yetakchi mutaxassislardan biri bo'lib,

uning va'zlari millionlab tinglovchilar tomonidan kuzatiladi. Mazkur manba maqolada zamonaviy ingliz islomiy diskursini aks ettiradi, ya'ni diniy tushunchalarning tabiiy nutqdagi qo'llanilishini namoyish qiladi.

4) Muhammad Abdel Haleem arab va islomshunoslik sohasida tahsil olib, Qohira universitetida bakalavr darajasini, Kembrij universitetida esa doktorlik darajasini olgan. Hozirda u Londondagi Sharqshunoslik va Afrika tadqiqotlari maktabida (SOAS), shu bilan birga London universitetida arab va islomshunoslik professori sifatida faoliyat yuritadi va Qur'onshunoslik jurnali (Journal of Qur'anic Studies) bosh muharriri hisoblanadi. Uning ilmiy tadqiqotlari Qur'onning lingvistik va retorik xususiyatlari, Islomiy oilaviy huquq, turli dinlar o'rtasidagi dialog va Qur'onning zamonaviy musulmon jamiyatlaridagi roli kabi sohalarni qamrab oladi. Abdel Halimning ishlari madaniy va lingvistik jihatdan bo'shliqlarni bartaraf etishga, islomiy matnlarni global auditoriya uchun tushunarli qilishga qaratilgan. Shuningdek, 2008-yilda u arab madaniyati, adabiyoti va turli dinlar o'rtasidagi tushunishni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun Buyuk Britaniya Imperiyasi Ordeni (OBE) bilan taqdirlangan. Shu sababli, maqolada undan olingan iqtiboslar ilmiy jihatdan ishonchli manbaga asoslangan hisoblanadi.

5) Bundan tashqari Imom Muslimning sahih hadislaridan ham obyekt sifatida foydalanildi.

6) Islomiy-diniy publisistik maqolalardan misollar keltirish uchun esa *AboutIslam.net*, *IslamReligion.com* kabi islomiy ma'lumotlarni taqdim etuvchi nufuzli onlayn platformadan foydalanildi, u musulmonlar uchun turli mavzularda maqolalar, fatvolar, maslahatlar, ilmiy va diniy materiallarni taqdim etadi. Saytlar Haulah bint Yahya, Aisha Steysi kabi islomiy ilm-fan va amaliyot sohasida tanilgan va hurmatga sazovor shaxslar tomonidan boshqariladi. *Britannica.com* sayti maqolalaridan ham diniy realiyalar ishtirok etgan gaplardan misol sifatida foydalanildi, u dunyodagi eng ishonchli va obro'li ma'lumot manbalaridan biri hisoblanadi. U 1768-yilda Shotlandiyada tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda global miqyosda ilmiy va ta'limiy sohalarida yuqori obro'ga ega. Britannica maqolalari yuqori sifatli tahririy jarayonlardan o'tadi. Har bir maqola ekspertlar tomonidan yozilib, tahrir qilinadi va 14 bosqichli tekshiruvdan o'tadi. Bu jarayon maqolalarning aniq, xolis va dolzarb bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida leksik-semantik tahlil qo'llanildi. Ushbu metod orqali realiyalarning ingliz tilidagi shakli, ularning ma'nodosh ekvivalentlari va tarjima variantlari aniqlab olindi. Har bir realiya konkret kontekstda tahlil qilinib, ularning asl shakli (transliteratsiya), tarjima turi (ekvivalent yoki izohli) va madaniy yuklamasi aniqlashtirildi.

Ingliz islomiy diskursida semantik tahlil, avvalo, realiyalarning diniy matnlardagi semantik yukini aniqlash va ularning madaniy konnotatsiyalar bilan bog'liqligini tushuntirishga qaratiladi. Bu iboralar ko'pincha muayyan diniy-amaliy qadriyatlarni ifodalaydi hamda madaniy va diniy identitetni mustahkamlovchi semantik birliklar sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, ularning tarjima jarayonidagi adekvatlik darajasi va anglanish darajasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tahlil jarayonida S.Vlaxov va S.Florin tomonidan ilgari surilgan realialarni tasniflash va turlarga ajratish uslublari asos qilib olinadi. Ularning yondashuviga ko'ra, realiyalar o'ziga xos milliy, diniy, madaniy va tarixiy mazmun yuklangan, boshqa madaniyatga ko'chirilishi qiyin bo'lgan leksik birliklardir. Shuningdek, tarjima jarayonida bu birliklarni to'g'ri anglash va yetkazish uchun P.Nyumark tomonidan ishlab chiqilgan semantik va kommunikativ tarjima modellari ham ko'rib chiqildi. Uning fikricha, realiyalar tarjimasida adekvatlikni saqlash uchun ularni izohli, adabtatsiyalashgan yoki o'zgartirilmagan shaklda berish strategiyasi tanlanadi [Newmark, 1988].

Shu asosda ingliz islomiy diskursida uchraydigan "*zakat*", "*hijrah*", "*ummah*", "*deen*", "*sunnah*" kabi realiyalar semantik, madaniy va kontekstual jihatdan tahlil qilinadi. Bunday tahlil ularning anglanish darajasi, tarjima muammolari, va madaniyatlararo adekvatlik masalalarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa diskursiv strategiyalarni chuqurroq tushunish va diniy tushunchalarni g'arb foydalanuvchisiga tushunarli shaklda yetkazish uchun zarur asos yaratadi.

Ingliz islomiy diskursini o'rganishda leksik tadqiqot metodi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu metod asosida diskurs tarkibidagi leksik birliklarning semantik, pragmatik va madaniy o'ziga xosliklarini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Leksik birliklarning madaniyatlararo semantik va pragmatik tafovutlari P.Nyumarkning "semantik ekvivalent" tamoyili yordamida tahlil qilindi. Ushbu tamoyilga ko'ra, diniy matnlardagi leksik birliklarni tarjima qilishda ularning madaniy va diniy konnotatsiyalarini saqlash ustuvor ahamiyatga ega. Shuningdek, S.Vlaxov va S.Florinning realiyalarni o'rganishga oid tasnifiy yondashuvlari yordamida leksik birliklar madaniy konnotatsiyalari bilan aniqlanadi.

Leksik tadqiqot metodi orqali ingliz islomiy diskursidagi asosiy terminlar, masalan, "*Bismillah*", "*Insha'Allah*", "*Allohu Akbar*" kabi birliklarning lug'aviy ma'nosi, kontekstual funksiyalari, madaniy asoslari aniqlandi.

Ushbu metodologik yondashuv matnni semantik va pragmatik jihatdan chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda leksik birliklarning lingvistik va kommunikativ ahamiyatini ochib beradi. Natijada, ingliz islomiy diskursida ishlatiladigan leksik birliklarning madaniy-ma'rifiy yuklamasi va ma'nolarini g'arb foydalanuvchisi uchun moslashtirilgan shaklda yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Keyingi bosqichda madaniyatlararo kommunikativ yondashuv asosida realiyalar o'quvchiga yetkazilish darajasi va madaniy adekvatlik mezonlari asosida baholandi. Maqsadli auditoriya madaniyatining islomiy tushunchalarni qanday qabul qilishi va bu realiyalar tarjimada qanday semantik o'zgarishlarga uchrashi alohida e'tiborga olindi.

Shuningdek, chog'ishtirma tahlil metodidan foydalangan holda, o'zbek va ingliz tillaridagi diniy matnlarda uchraydigan bir xil realiyalar taqqoslab tahlil qilindi. Bu orqali tarjima strategiyalaridagi farqlar va ularning sabablari aniqlashtirildi.

Metodologik asos sifatida tarjima nazariyasidagi klassik yondashuvlar hamda lingvistik relativizm nazariyasining ayrim tamoyillariga tayanildi [Fyodorov, 2002]. Xususan, M.Beykerning realiyalar tarjimasida izohli yondashuv va madaniy

moslashtirishni afzal ko‘rish haqidagi g‘oyalari tahlilga yo‘nalish berdi [Baker, 1992].

NATIJALAR VA MUNOZARA

Realiya tushunchasi va uning tilshunoslik nazariyasidagi o‘rni

Til muntazam ravishda rivojlanib, o‘zgarib turadigan hodisadir. Xalqlar orasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar ikkinchi bir tilga kirib boradi, shu tilga singib, uning o‘z birligiga aylanib ketadi. Boshqa bir xalq va madaniyatga xos bo‘lgan matn va asarlar ikkinchi bir tilga tarjima qilinar ekan, albatta o‘sha matnda shu madaniyatga xos predmet, tushuncha va joy nomlarini ifodalovchi so‘zlar uchraydi. Realija termini adabiy tarjima, lingvokulturologiya, leksikologiya va madaniyatshunoslik sohalarida keng qo‘llaniladi. Realialar – bu muayyan xalqning hayoti, madaniyati, diniy amaliyoti yoki tarixiy tajribasiga xos bo‘lgan tushunchalar yoki predmetlardir [Vlaxov & Florin; 1970]. Realialar yoki madaniyatga bog‘liq atamalar (*lotincha “realia” – haqiqiy narsalar, faktlar*) – bu har qanday mamlakat yoki madaniyatga xos bo‘lgan siyosiy, institutsional, ijtimoiy yoki geografik xususiyatga ega aniq nomlar va leksik birliklardir. Tilshunoslikda realialar masalasi tarjima nazariyasining markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Realialar boshqa madaniyatga ko‘chirilishi qiyin bo‘lgan, milliy va madaniy rang-baranglikni aks ettiruvchi leksik birliklardir. S.Vlaxov va S.Florin realialarni ilk bor tizimli ravishda o‘rgangan olimlar bo‘lib, ular realialarni “milliy koloritni ifodalovchi va boshqa tilga to‘liq ko‘chirib bo‘lmaydigan birliklar” sifatida ta’riflaydilar hamda ularni tarjima qilish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqqanlar [Vlaxov & Florin; 1970]. Bugungi kunda realija atamasi mavjud lug‘atlarning birortasida uchramaydigan tushuncha sifatida tushuniladi [Kobenko & Tarasova, 2015; 3].

Haqiqatda bugungi kunda ‘realija’ atamasi mavjud umumiy lug‘atlarda uchramaydigan va asosan lingvistik va tarjima tadqiqotlarida ishlatiladigan tushuncha sifatida qaraladi. O‘zbek tilshunoslari – U.Tursunov, J.Muxtorov va Sh.Rahmatullayevlar ham realialarni lingvistik tadqiq etib, ularni odatda boshqa tillarda ekvivalentga ega bo‘lmasligini va tarjimada maxsus yondashuvni talab qilishi va realialar ko‘pincha madaniy, diniy, tarixiy yoki ijtimoiy xususiyatlarni aks ettirishini ta’kidlaydilar [Tursunov & Muxtorov & Rahmatullayev; 1992; 173].

Tilshunoslikda realialar masalasining o‘rganilishi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlangan. Ilk bor realialarni alohida til birliklari sifatida o‘rganish zarurati tarjima nazariyasi rivojlanishi bilan yuzaga keldi. Tarjimada milliy-madaniy komponentlarni to‘g‘ri ifodalash muammosi olimlarni realialarning tabiati va ularning lingvistik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga undadi. Realialar terminini ilm-fanga birinchi marta S.Vlaxov va S.Florin o‘zlarining “Непереводимое в переводе” asarida kiritdilar. Ular realialarni “milliy koloritni” ifodalovchi til birliklari sifatida tavsiflab, ularni tarjima qilishning alohida strategiyalarini ishlab chiqdilar. Shuningdek, tarjima nazariyasi tarixida E.Sepir va B.Uorf kabi olimlarning madaniyat va tilning o‘zaro ta’siri haqidagi g‘oyalari ham realialarni o‘rganishga turtki bo‘lgan [Sapir, 1921], [Uorf, 1956]. Ularning lingvistik determinizm nazariyasi til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatdi, bu esa realialarni til va madaniyat o‘zaro aloqasining

muhim unsuri sifatida ko‘rishga asos bo‘ldi. XX asrning ikkinchi yarmida realiyalarni tasniflash va tarjima qilish usullari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, I.V. Arnol’d o‘zining “The English Word” asarida realiyalarni “mavjud dunyodagi ob‘ektlarning tilda aks etgan shakllari” sifatida baholaydi va ularning semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratadi [Arnol’d, 1986]. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, realiyalar nafaqat til birliklari sifatida, balki ularning **ma’nosi, funksiyasi va madaniy konteksti** orqali o‘rganilishi zarur. Boshqacha aytganda, har bir realiya lingvistik struktura bilan birga **madaniy va ijtimoiy ma’lumotni** ham uzatadi. Shuning uchun tarjimada realiyalarni to‘g‘ri aniqlash va ularning semantik xususiyatlarini hisobga olish tarjimon uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu orqali manba matnning ma’nosi va madaniy konteksti maqsadli auditoriyaga aniq yetkaziladi. Bugungi kunda realiyalar nafaqat tarjima nazariyasi, balki madaniyatlararo kommunikatsiya, sotsiolingvistika va leksikologiya sohalarida ham muhim tadqiqot ob‘ekti hisoblanadi. Realialar orqali madaniy tafovutlar, kommunikativ strategiyalar va milliy identifikatsiyaning lingvistik ifodalanishi tahlil qilinmoqda. A.V. Fyodorov realiyalarni “bir millat hayotining o‘ziga xos, o‘zga tillarga to‘liq ko‘chirib bo‘lmaydigan tushuncha” sifatida ta’riflagan. S.Vlaxov ularning tarjimada o‘ziga xos usullarni talab etishini ta’kidlaydi [Fyodorov, 2002] [Vlaxov, 1970]. Ekzotik leksikani realiyalarning bir ko‘rinishi sifatida tadqiq etgan N.M. Uluqov realiyalar qaysi xalqning tilida paydo bo‘lsa, o‘sha xalqning mulki deb sanaydi [Uluqov, 1997; 53].

Realialarning turlari va xususiyatlari

Tilshunos olimlar realiyalarni geografik va etnografik turlarga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etishadi [Ischenko, 2012]. Geografik realialar – geografik obyektlar, toponimlar, iqlim hodisalari (yomg‘ir, shamol, dovul, tuman) va faqat ma’lum hududga xos tirik mavjudotlar (endemik turlar) nomlaridir. Etnografik realiya xalqlarning kundalik hayoti va madaniyatini, ularning ma’naviy va moddiy madaniyatini, urf-odatlarini, dinini, san’atini, fol’klorini va boshqalarni tavsiflaydi. Etnografik voqelik-bu kundalik hayot, san’at va madaniyat, aholi nomlari va etnik ob’ektlar, valyuta birliklari bilan bog‘liq bo‘lgan voqelik. Bir til ichida biz o‘zga xalq voqeliklarini va realiyalarni ajratib ko‘rsatishimiz kerak, ular o‘z navbatida milliy (mamlakatning barcha fuqarolariga ma’lum), mahalliy (bitta lahjaga tegishli), mikrolokal (aniq joyga xos) turlarga ham bo‘linadi.

Islomiy diskurs realialari

Ingliz tilidagi islomiy diniy nutqda realialardan foydalanish – bu islomiy matnlar va ta’limotlarni ingliz tilida tarjima qilish hamda sharhlash jarayonida madaniy-ma’naviy xususiyatlarga ega bo‘lgan elementlarni kontekstual ravishda integratsiya qilishni anglatadi. Bunday realialar ko‘pincha ingliz tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmagan, islom an’analari, diniy qadriyatlari va ijtimoiy amaliyotlariga xos bo‘lgan semantik va pragmatik nozikliklarni ifodalaydi. Ular muqaddas matnlar, diniy atamalar, madaniy urf-odatlar va ijtimoiy voqeliklarni o‘z ichiga oladi. Bu kabi birliklarning to‘g‘ri va adekvat ifodalanishi, ayniqsa, arab tilida so‘zlashmaydigan auditoriya uchun islomiy tushunchalarning mazmunini to‘liq va

tushunarli yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali realiyalar globallashtirish jarayonida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va diniy-ma'naviy bilimlarni ommalashtirishga xizmat qiladi [Firestone, 2016]. Islomiy realiyalar esa diniy tushunchalar (masalan, *Zakat*, *Sawm*, *Umrah*), ibodat shakllari, diniy lavozimlar, Qur'on va sunnatga oid atamalarini o'z ichiga oladi. Masalan: *Zakat* – musulmonlarning yillik xayriya solig'i; *Sawm* – Ramazon oyidagi ro'za tutish; *Haram* – shariat tomonidan ma'n qilingan narsalar yoki amallar. Al-Xarabshehning ta'kidlashicha, islomiy diskursda madaniyat bilan bog'liq atamalar ko'pincha diniy terminlar, ibodat shakllari, madaniy an'analar va ijtimoiy tuzumlar shaklida namoyon bo'ladi [Kharabsheh, 2002; 20]. Ingliz tilidagi diniy matnlar, xutbalar, va'zlar, fatvolar va ilmiy-publitsistik materiallarda realialarni adekvat yetkazish islom ta'limotini to'g'ri anglash uchun zarurdir. Realialardan foydalanish bilan bog'liq ko'zga ko'ringan bahs-munozaralar ko'pincha islom tushunchalarining turli talqinlari va ifodalaridan kelib chiqadi.

Realialarning leksik-semantik xususiyatlari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: *Leksik mustaqillik*: Realialar ko'pincha tarjima qilinmaydi, asl shaklda transliteratsiyalanadi: *Salah*, *Zakat*. Bu holatda tarjimon uni asl shaklda saqlaydi va zarurat tug'ilganda izoh beradi. *Ko'p ma'nolilik*: Bir realiya kontekstga qarab bir nechta ma'noni anglatishi mumkin, masalan, "*Halal*" konsepti nafaqat ovqatga, balki moliyaviy xizmatlarga, kiyim-kechak va hayot tarziga ham taalluqlidir [Riaz, 2023; 87]. *Madaniy o'ziga xoslik va kontekstga bog'liqlik*: Realianing to'liq ma'nosi uni atrofidagi madaniy kontekstni bilgan holda anglash mumkin. Masalan, *Ramadan* so'zi faqat ro'za emas, balki ijtimoiy birdamlik, ibodat va o'zini tarbiyalash muhitini ham anglatadi [Ischenko, 2002].

Tilshunos El-Sharif islomiy diskursda uchraydigan realialarni semantikasiga ko'ra diniy, madaniy, ijtimoiy, tarixiy va terminologik kabi turli guruhlariga ajratishni taklif etadi [El-Sharif, 2011].

1) Diniy realiyalar diniy amallar, rasm-rusumlar va diniy lavozimlarga oid terminlardir:

"As one of the five pillars of Sharia, the importance of the **Hajj** (pilgrimage to Mecca) lies in its universal obligation" [Brown, 2009; 120]. Tarj.: "*Shariatning besh ustunidan biri sifatida, Hajning (Makkaga ziyoratning) ahamiyati uning universal (barchaga tegishli) majburiyat ekanligida ko'rinadi (muallif tarjimasi).*" Bu gapdagi "hajj" so'zi diniy amallarni ifodalovchi realiya turiga misol bo'la oladi.

2) Madaniy realiyalar musulmon jamiyatining turmush tarzi, ovqatlanish odatlari va kiyim madaniyatini aks ettiradi: "*When we talk about **Halal** food, we are talking about far more than just what the animal ate or how it was slaughtered. **Halal** is a fundamental notion; it's an entire system of living that ensures that every morsel we put into our bodies is pure and sanctioned by Allah, nourishing not only the stomach but also the soul*" [Qadhi, 2021]. Tarj.: "*Biz Halol taom haqida gaplashar ekanmiz, biz faqat hayvon nimani yegani yoki qanday so'yilganidan ancha ko'proq narsani nazarda tutamiz. Halol fundamental tushunchadir; u shunday bir turmush tizimiki, biz tanamizga kiritadigan har bir luqmamiz pok va Alloh tomonidan ruxsat etilgan*

bo'lishini, nafaqat qorinni, balki ruhni ham oziqlantirishni ta'minlaydi (muallif tarjimasi)". Bu gapdagi "Halal" so'zi madaniy realiyalarga misol bo'la oladi, u transliteratsiya usulida tarjima qilingan. Lug'atda unga shunday ta'rif berilgan: "Permissible, lawful; In Islam everything is considered lawful unless it is explicitly or implicitly forbidden by the religion". [Al-Munajjid, 2025]. Tarj.: Ruxsat etilgan, qonuniy; "Aslida barcha narsalar taqiqlanganligi dalil bilan isbotlanmaguncha haloldir (muallif tarjimasi)".

"Iftar, the sunset meal, is traditionally inaugurated by consuming dates, in emulation of the Prophet Muhammad's practice, signifying the conclusion of the obligatory fast known as sawm" [Esposito, 2003; 35]. Tarj.: "Iftor, ya'ni quyosh botishidagi ovqatlanish, an'anaviy ravishda Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) amallariga ergashgan holda, xurmo iste'mol qilish bilan boshlanadi. Bu, savm deb nomlanuvchi farz ro'zasining tugashini anglatadi (muallif tarjimasi)". "Dates" (xurmo) va "iftar" (iftor) kabi so'zlar diniy va madaniy realiyalarni aks ettiradi, "Iftar" ingliz tilida izoh bilan berilgan.

3) Ijtimoiy realiyalar musulmon jamiyatining ijtimoiy tuzilishi va jamoaviy qadriyatlarini ifodalaydi: *"Muslims believe that they are members of a worldwide Muslim community, known as the ummah" [Esposito, 2011; 16]. Tarj.: "Ummat butun dunyo musulmonlarining jamoaviy birligini ifodalaydi (muallif tarjimasi)".*

4) Terminologik realiyalar shariat qonunlari va diniy-huquqiy tushunchalar bilan bog'liq terminlardir. Bu turdagi realiyalar diniy-huquqiy tizimga oid maxsus tushunchalarni anglatadi. Masalan, "fatwa", "shariah", "fiqh" – aniq ma'lumotlar va shar'iy huquqiy kontekstga ega terminlar.

a) *"A fatwa issued by a Mufti clarifies religious matters". [Ibn Taymiyyah, 2025]. Tarj.: "Mufti tomonidan berilgan fatvo diniy masalalarni oydinlashtiradi (muallif tarjimasi)".*

b) *"Zakat purifies one's wealth and soul". Tarj.: "Zakat insonning molini va qalbini poklaydi (muallif tarjimasi)". "Fatwa" va "Zakat" kabi diniy-huquqiy tushunchalarni ifodalovchi terminlar tarjima qilinmaydi, balki o'z shaklida qoldirilib transliteratsiyalanadi va izoh beriladi. Bu diniy terminning ma'no qatlamini saqlash uchun muhim.*

5) An'anaviy va tarixiy realiyalar:

"the Muslims ... migrated to Abyssinia ... and ... more than 80 Muslims emigrated, headed by Ja'far ibn Abi Talib". [Qadhi, 2015] Tarj.: "Musulmonlar ... Habashistonga hijrat qildilar ... va ... 80 dan ortiq musulmonlar Ja'far ibn Abi Tolib boshchiligida ko'chib o'tdilar (muallif tarjimasi)". "Companions" va "migration" kabi so'zlar diniy tarixiy realiyalarni anglatadi. "Hijra" (hijrat) termini ham tarjimada ko'pincha transliteratsiya bilan beriladi.

Geografik joy nomlari, diniy madaniyatga aloqador bo'lsa, diniy-madaniy realiyalar sifatida, va yoki ular diniy ahamiyatga ega bo'lmay faqat madaniy yoki ijtimoiy tarixiy ahamiyatga ega bo'lsa, realiyalarning madaniy turi sifatida ham qaralishi mumkin. Bu ikki tur o'rtasida ba'zi joylarda kesishmalar bo'lishi mumkin. Agar geografik joy nomi na diniy na ijtimoiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lmasa

u umuman realiya hisoblanmaydi. Misollar: “*Mekka*” va “*Medina*” – bu joylar faqat Islom madaniyati bilan emas, balki uning diniy jihatlari bilan bog‘liq. Ular musulmonlar uchun diniy ziyorat qilish joylaridir. “Jerusalem” (Quddus) – Bu joy yahudiylar, nasroniylar va musulmonlar uchun muqaddas bo‘lib, din bilan bog‘liq. Shuning uchun bu geografik joy nomlari diniy realiyalarga misol bo‘la oladi.

Geografik joy nomlari diniy ahamiyati bo‘lmasa, lekin ular o‘z madaniyatiga xos bo‘lsa yoki tarixiy ahamiyatga ega bo‘lsa madaniy realiyalar turiga kiradi. Masalan, Parij – Fransiya madaniyatiga oid joy nomi. Bu joy diniy emas, balki madaniy va tarixiy ahamiyatga ega, shu bois u madaniy realiya turiga misol bo‘la oladi.

Ba‘zi joylar, ayniqsa diniy va madaniy jihatlarni o‘zida mujassamlashtirgan joylar, ikkala kategoriyaga ham kirishi mumkin. Masalan: “Jerusalim” (Quddus) – Bu joyning diniy ahamiyati katta, lekin u shuningdek, tarixiy va madaniy ahamiyatga ham ega. Ushbu joyning diniy va madaniy jihatlari o‘rtasida farqni ajratish qiyin.

Ingliz islomiy diskursida realiyalarni ifodalash usullari

Ingliz islomiy diskursida realiyalarni adekvat va tushunarli tarzda yetkazish madaniyatlararo muloqotning muhim sharti hisoblanadi. Realialar tarjimada nafaqat so‘z sifatida, balki madaniy ma‘lumot tashuvchisi sifatida ham o‘rganilishi kerak. Tarjimon realialarning leksik-semantik xususiyatlarini to‘g‘ri anglab, kontekst va auditoriya ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarjima usullarini tanlashi zarur. S.Vlahov va S.Florinlarning yondashuviga ko‘ra, realialar tarjimada nafaqat lug‘aviy ma‘no, balki madaniy va konnotativ yuklamani ham yetkazishi lozim. Shu sababli ingliz islomiy diskursidagi “ummah”, “hijrah”, “zakat” kabi diniy terminlarni tarjima qilishda faqatgina so‘zma-so‘z yondashuv yetarli emas, balki ularning madaniy va diniy kontekstini ham chuqur tahlil qilib, mos strategiyani tanlash talab etiladi [Vlahov & Florin, 1970]. Tarjima jarayonida madaniy realiyalarni ifodalashda turli strategiyalar qo‘llaniladi. Ulardan biri –umumlashtirish, bunda manba matndagi aniq diniy termin umumiyroq tushuncha bilan almashtiriladi. Masalan, “zakat” atamasini ingliz tilida “charity” (xayriya) tarzida berish. Almashtirish usulida esa manba tilidagi realiya maqsadli auditoriyaga yaqinroq tushunchaga almashtiriladi. Masalan, “Eid” so‘zini inglizchaga “festival” shaklida tarjima qilish. Tushirib qoldirish strategiyasida esa ba‘zan diniy realiya umuman tarjima qilinmaydi, masalan, “He broke his fast with dates” jumlasida “dates” (xurmo) so‘zi tushirib yuborilib, “U ro‘zasini ochdi” tarzida berilishi mumkin. A.Noureldinning ta’kidlashicha, bunday yondashuvlar tarjimonda kontekst, auditoriya va madaniy adekvatlikni hisobga olish zaruriyatini tug‘diradi [Noureldin, 2001; 6].

Tarjima jarayonida realiyalarni to‘g‘ri va samarali ifodalash ko‘plab lingvistik va madaniy muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, ingliz islomiy diskursida musulmon realiyalarining tarjimasi quyidagi asosiy muammolar bilan to‘qnashadi:

Mavhum sinonimlik ya’ni sinonimlar zanjiridan mos so‘zni tanlab olish

Mavhum sinonimlik tarjima jarayonida ayniqsa realialar bilan ishlaganda katta qiyinchilik tug‘diradi. Bu holat shunda namoyon bo‘ladiki, tarjimon bir realiya uchun to‘liq mos keladigan ekvivalent topolmaydi, chunki u so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan

birga madaniy, diniy, emotsional va konnotativ yuklamasini ham o'tkazishi kerak bo'ladi. Mavhum sinonimlar ma'nosi aniq chegaralanmagan, kontekstdan kontekstga o'zgarib turadigan va faqat hissiy, diniy yoki yashirin madaniy tushunchalarni bildiruvchi so'zlardir. Lekin diniy diskursda ularning farqlarini aniqlab eng adekvat so'zni topib qo'llash muhimdir. Tarjimada bir so'zga bir nechta yaqin ekvivalent topilishi mumkin, ammo ularning hech biri 100% mos bo'lmaydi. Natijada tarjimon qaysi ekvivalentni tanlashni hal qilishda qiynaladi va noaniqlik paydo bo'ladi. Tilshunos D.Kruz buni "yarim sinonimlik" deb ataydi va ayniqsa diniy va madaniy matnlarda sinonimlarning semantik chegarasi turlicha bo'lishi tufayli muammo keskinlashishini ta'kidlaydi [Cruse, 2000].

Tilshunos J.Vinay va J.Darbelnetning ta'kidlashicha, sinonimlar bir xil mazmunni turlicha ifodalaydi, ammo konnotatsiya farqi tufayli tarjimada noto'g'ri ekvivalent tanlash xavfi mavjud [Vinay & Darbalnet, 1995]. Diniy diskursdagi bir qator sinonimlar zanjirini ko'rib chiqamiz: **Faith – Belief – Conviction** – ingliz diskursida bu uch so'z ko'pincha bir-biriga yaqin ishlatiladi. *Faith* diniy kontekstdagi "e'tiqod", *belief* shaxsiy "ishonch", *conviction* esa "qat'iy ishonch"ni bildiradi. Masalan: *Islamic faith* – "islom e'tiqodi", *belief in God* – "Xudoga ishonch", *deep conviction in Islam* – "islomga chuqur qat'iy ishonch". Xususi bo'lmagan diskursda uchchala leksikani ham "e'tiqod" deb berish mumkin, biroq diniy diskursda farqlash zarur. E.Nidaning ta'kidlashicha, diniy matnlarda sinonimlarni kontekstsiz birlashtirish semantik noaniqlik va teologik noto'g'ri talqinlarga olib keladi [Nida, 1964]. "*Ummah*" realiyasini ham diniy kontekstda foydalanganda uning qisman sinonimlaridan foydalanish holatlari ham uchrab turadi. **Community – Ummah – Congregation** so'zlari qisman sinonim hisoblanadi, chunki *community* – umumiy jamoani anglatadi, kengroq tushuncha, diniy bo'lishi ham, bo'lmashligi ham mumkin, diniy markerlanmagan so'z; *ummah* – musulmonlar butun jamoasi, diniy, islomiy jamoa tushunchasini bildiradi, diniy realiya; *congregation* tushunchasi esa diniy ma'noda – jamoat, ibodat yoki marosim uchun yig'ilgan odamlar guruhi (masalan, cherkov yoki masjid jamoasi), umumiy ma'noda – bir joyga yig'ilgan odamlar guruhini ifodalaydi. Tilshunoslikda bunday so'zlar odatda qisman ekvivalent yoki qisman sinonim sifatida tasniflanadi. B.Hatim va I.Meyso tarjimada pragmatik adekvatlik muhimligini ta'kidlab, "bir xil ko'rinadigan sinonimlarni diniy diskursda kontekstsiz tarjima qilish qabul qiluvchida noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin" deb ta'kidlashadi [Hatim & Mason, 1997]. P.Nyumark ham diniy diskursda sinonimlarni to'g'ri ajratish semantik aniqlik va diniy adekvatlik uchun zarurligini alohida ta'kidlaydi [Newmark, 1998].

Semantik noaniqlik

Har doim ham realiya to'liq va aniq tarjima qilinmaydi. Buning sababi – ma'no chegaralari yoki konnotativ yuklamalarning bir tildan boshqasiga o'tkazishda yo'qolib ketishidir. Realialarni tarjima qilishda mos tarjimani tanlay olmaslik konnotativ yuklama – emotsional, stilistik, madaniy qo'shimcha ma'no kabilarning boshqa tildagi tarjimada yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Bir so'z faqat lug'aviy ma'noni emas, balki shu xalqning madaniy, diniy yoki tarixiy tajribasini ham o'zida mujassam

qiladi. Masalan, “Ramadan” soʻzida musulmonlar uchun baraka, sabr, mehr-oqibat, ruhiy poklanish tushunchalari yashirin. Ingliz tilida oddiy “*fasting month*” (roʻza oy) deb berilsa, bundagi qoʻshimcha konnotatsiyalar yoʻqolib ketadi.

Tarjimonlar bunday hollarda izoh berish, kontekstual moslashtirish yoki dinamik ekvivalentlik usullaridan foydalanadilar.

Madaniy tafovutlar

Koʻplab musulmon realiyalari gʻarb madaniyatida mavjud boʻlmagan diniy, ijtimoiy yoki ruhiy qadriyatlar bilan bogʻliq boʻlib, ularni bevosita tarjima qilish imkoniyati yoʻq. Masalan, “*ummah*”, “*wudu*” va “*hadith*” kabi atamalar gʻarbiy kontekstda begona yoki tushunarsiz boʻlishi mumkin. Gʻarbiy madaniyatda bu tushunchalarning chuqur diniy va tarixiy konnotatsiyasi mavjud boʻlmagani sababli, ularni toʻgʻridan-toʻgʻri kontekstda izohsiz foydalanish madaniy tafovutni keltirib chiqaradi. Madaniy tafovutning turlari:

1) Maʼno tafovuti – soʻzning asl madaniyatda chuqur diniy yoki tarixiy maʼnosi bor, gʻarbiy madaniyatda esa u tushunarsiz yoki boshqa konnotatsiyaga ega boʻladi. Masalan, *taqwa* – “Allohdan qoʻrqish va unga itoat qilish” degan keng diniy tushuncha. Ingliz tilidagi *piety* yoki *righteousness* bu maʼnoni toʻliq bera olmaydi.

2) Qabul qilishdagi tafovut – gʻarbiy auditoriya uchun ayrim soʻzlar yangi yoki notanish boʻlganligi sababli ularni tushinishda qiyinchilik tugʻiladi. Masalan, *hijab*, *zakat*, *sharia* kabi soʻzlar gʻarbda koʻpincha siyosiy yoki stereotipik maʼnoda qabul qilinadi.

3) Tarjima strategiyasidagi tafovut – gʻarbiy kontekstda baʼzan madaniy moslashtirish, baʼzan esa transliteratsiya usulida qoʻllaniladi. Masalan: *ummah* → transliteratsiya sifatida shu shaklda qoldiriladi, *taqwa* → izohli tarjima bilan: *God-consciousness*, *mindfulness of Allah*. Gʻarbiy kontekstda realiyalarni ifodalash **lingvistik** va **madaniy tafovutlarni** hisobga olishni talab qiladi.

Adekvatlik va tushunarlilikni saqlash

Realiyalar tarjimasi uchun bir nechta strategiya mavjud – transliteratsiya, leksik ekvivalent, parafrazadan foydalanish yoki izoh berish, yoki baʼzan tarjima qilinayotgan tildagi madaniy oʻrmini bosuvchi soʻzdan foydalanish (maʼnoga yaqin, lekin mahalliyroq atama). H.Gazala koʻpincha “maʼnoni kontekstda” berishni afzal koʻradi: yaʼni qaysi strategiya ishlatilishi – matn turi (ilmiy, adabiy, ommabop), oʻquvchi kutgan darajasi va matndagi funktsiyaga bogʻliqligini taʼkidlaydi [Ghazala, 1995]. Bu albatta toʻgʻri yondashuv, chunki, realiya koʻpincha madaniy anglashuvni oʻz ichiga oladi, agar tarjimon toʻgʻri kontekstni hisobga olmasa, tarjima notoʻgʻri yoki chalgʻituvchi boʻlishi mumkin.

Tarjimon realiyaning semantik jihatdan toʻgʻri yetkazish bilan birga, matnning umumiy mazmunini oʻquvchiga tushunarli shaklda taqdim etishi ham zarur. Bu holatda madaniy moslashtirish va izohli yondashuv eng samarali strategiyalardan hisoblanadi. Bundan tashqari yana bir qator tarjima abstraksiyalar, sinxronik va diaxronik hamda kontseptual shakllar bilan bogʻliq tarjima muammolari borki, ular maʼnoni vaqt, joy, madaniyat va soha kontekstiga mos ravishda aniq yetkazishda jiddiy toʻsiqlarni

keltirib chiqaradi [Ali Khan, 2016]. Tarjimon nafaqat soʻzning lugʻaviy maʼnosini, balki uning tarixiy va zamonaviy kontekstdagi qoʻllanilishi, madaniy moslashuvi va professional yoki ilmiy soha xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Shu sababli, bunday elementlarning notoʻgʻri yoki yetarlicha eʼtiborsiz tarjimai asl matnning maʼnosini buzishi, auditoriya uchun tushunarsiz yoki madaniy jihatdan noaniq boʻlishiga olib keladi. Tarjima jarayonida aynan shu jihatlar murakkablik va maxsus yondashuvlarni talab qiladi.

Quyidagi jadvalda ayrim islomiy diniy diskursda uchrovchi realiyalarning ifodalanishdagi muammo turlari keltirilgan.

Islomiy realiya	Lugʻaviy tarjima (inglizcha)	Gʻarb auditoriyasida tushunilishi	Muammo turi
Ummah	Muslim Community	Faqat “mahalliy musulmonlar jamoasi” sifatida tushuniladi, butun dunyo musulmonlarini qamrab olmaydi	Maʼno chegarasi torayishi
Shirk	Polytheism/ Idolatry	Faqat koʻpxudolik sifatida tushuniladi, Allohga sherik qoʻyishning boshqa shakllari yoʻqoladi	Semantik yoʻqotish
Haj	Pilgrimage	Nasroniy yoki dunyoviy ziyoratlar bilan tenglashtiriladi, islomdagi farz amal va ruhiy tozalanish maʼnosi yoʻqoladi	Stilistik neytrallashuv
Sadaqah	Charity/ Almsgiving	Oddiy xayriya sifatida qabul qilinadi, lekin islomdagi niyat va ibodat elementlari tushunilmaydi	Konnotativ yoʻqotish
Zina	Adultery	Faqat turmush qurganlar orasidagi xiyonat sifatida talqin qilinadi, islomdagi kengroq maʼnosi (nikohsiz aloqa) yoʻqoladi	Maʼno chegarasi torayishi
Halal	Permissible	Faqat “ruxsat etilgan” maʼnosida qabul qilinadi, diniy va ruhiy kontekst yoʻqoladi	Madaniy neytrallashuv
Jihad	Holy War	Faqat urush yoki zoʻravonlik bilan bogʻliq tushunchada talqin qilinadi, aslida ichki ruhiy kurash (nafs bilan) maʼnosi yoʻqoladi	Madaniy chalkashlik

M. Beyker taʼkidlaganidek, tarjimada realiyalarga nisbatan izohli yondashuv va madaniy moslashtirish eng samarali strategiyalar sirasiga kiradi. Bu strategiyalar orqali diniy tushunchalar anglofon auditoriyaga tushunarli va madaniy jihatdan qabul qilinadigan shaklda yetkaziladi [Baker, 1992].

Ingliz islomiy diskursida realiyalar koʻpincha gʻarbiy (anglofon) auditoriyaga tushunarli va madaniy jihatdan mos shaklda taqdim etiladi. Bunday adaptatsiya (moslashtirish) – lingvistik-pragmatik strategiya boʻlib, maqsadi – tushunarlilik va kontekstga moslikni taʼminlashdir. Realialarning ingliz tilida odatda translitratsiyalanadi va izoh beriladi.

“During Ramadan, Muslims observe sawm, or fasting from dawn to sunset” [Imam Muslim, 1954]. Tarj.: “Ramazon oyida musulmonlar tongdan to quyosh

botguncha ro'za tutadilar – bu ruhiy tarbiya shaklidir (muallif tarjimasi)". Bu misolda "sawm" (ro'za) so'zi transliteratsiyalashgan va izidan "fasting" (ro'za tutish) alternativ tarjima ham keltirib o'tilgan. "Ramadan" so'zi transliteratsiya qilingan holda ishlatiladi, lekin uning mohiyati – "fasting from dawn to sunset" (tongdan quyosh botguncha ro'za tutish) orqali kontekstual tushuntirish bilan izohlandi. Shu orqali realiya ingliz madaniyatida mavjud bo'lmagan tushunchani qamrab oladi.

Kontekstual izohlash: "Zakat, a form of obligatory charity, is one of the pillars of Islam" [Esposito, 2003]. Tarj.: "Zakat – Islomdagi majburiy sadaqa bo'lib, har yili moddiy imkoniyati bor odamlar tomonidan kambag'al va muhtojlarga beriladi (muallif tarjimasi)". "Zakat" so'zi transliteratsiya qilingan, ammo izohda bu tushuncha **obligatory almsgiving** (majburiy sadaqa) deb madaniy jihatdan mos ravishda izohlanmoqda. Bu strategiya ekvivalent topilmaydigan diniy tushunchalarni izohlash orqali auditoriyaga tushunchani ma'lum qiladi.

Ekvivalent izlash – bu tarjima va pragmatik strategiya bo'lib, muayyan diniy yoki madaniy realiya uchun ingliz tilida semantik jihatdan yaqin bo'lgan, ammo madaniy jihatdan tanishroq yoki tushunarliroq ifodani tanlashni anglatadi. Bunday strategiya adekvatlik va tushunarlilikni saqlagan holda maqsadli auditoriyaning madaniy tushunchasiga mos keladigan tarzda ishlatiladi. Masalan, "Imam" o'rniga "religious leader" deb ifodalash. "Salat, the ritual prayer performed five times a day, is central to Islamic practice" [Khaulah, 2019]. Tarj.: "Namoz – kuniga besh mahal ado etiladigan marosimiy ibodat bo'lib, u islomiy amaliyotning markaziy unsurlaridan biridir (muallif tarjimasi)". "Salat" arabcha atamasi transliteratsiya qilingan, ammo u ingliz tilida mavjud "ritual prayer" iborasi bilan madaniy yaqin ekvivalent orqali izohlangan. Bu orqali g'arbiy o'quvchiga diniy amal mazmuni tushunarli qilib yetkaziladi.

Adaptatsiya, madaniy jihatdan mos shaklda taqdim etish, bu faqat so'z o'zgartirish emas, balki madaniyatlararo tushunishni yengillashtirish uchun realiyalarni maqsadli auditoriyaning mentalitetiga moslashtirishdir. Bu strategiyadan foydalanish ayniqsa ommalashtirilgan diniy matnlarda juda muhim hisoblanadi. Masalan:

"Bismillah" (بسم الله الرحمن الرحيم) – har qanday ishni boshlashda aytiladigan ibora. Adaptatsiyalangan ya'ni madaniy moslangan shaklda quyidagicha ishlatiladi: "Muslims often say 'In the name of God' (Bismillah) before starting any action, as a way to seek blessings". Tarj.: "Musulmonlar ko'pincha har qanday ishni boshlashdan oldin 'Bismilloh' (Alloh nomi bilan) deb aytadilar, bu orqali ular baraka tilaydilar (muallif tarjimasi)". Bu yerda "Bismillah" iborasi so'zma-so'z emas, balki madaniy mos shaklda – "In the name of God" deb tarjima qilinib, g'arbiy auditoriyaga yaqin kontekstda tushuntirilmoqda. Keyin esa asl arabcha ibora qavs ichida keltiriladi.

"Insha'Allah" (إن شاء الله) – Alloh xohlasa, degan ma'no beradi. "Muslims often say 'God willing' (Insha'Allah) when speaking about future events, acknowledging that outcomes are in God's hands" [Abdul Halim, 2004]. Tarj.: "Musulmonlar kelajakdagi voqealar haqida gapirganda ko'pincha 'Inshoolloh' (Xudo xohlasa) deb aytadilar, bu bilan ular natijalar Alloh irodasiga bog'liqligini tan oladilar (muallif tarjimasi)".

"Insha'Allah" iborasi g'arb madaniyatida mavjud bo'lgan "God willing" (Xudo

xohlasa) iborasi bilan madaniy jihatdan teng ekvivalent tarzda taqdim etilgan. Bu orqali konnotatsiya va diniy ruhiyat saqlanib qolgan.

Islomiy diskursda realiyalar nafaqat ma'no, balki stilistik ta'sir vositasi hamdir. Masalan, "Insha'Allah", "Bismillah", "Allahu Akbar" kabi iboralar konnotativ ma'no va ruhiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, kontekstga qarab izohli tarjima yoki adaptatsiya talab etadi.

Iboralar	Transliteratsiya	Adaptatsiya	Izohli Tarjima
Insha'Allah	Insha'Allah, we will meet tomorrow.	If God wills, we will meet tomorrow.	We will meet tomorrow, but this depends on God's will.
Bismillah	Bismillah, let's start the meal.	In the name of God, let's start the meal.	Let's start the meal, asking God for blessings and approval.
Allahu Akbar	Allahu Akbar! The prayer begins.	God is the Greatest! The prayer begins.	The prayer begins, praising God's greatness and majesty.

Va'zlar va diniy publitsistik matnlardagi diniy iboralar tarjimasida qanday yondashuvni tanlash matnning maqsadi, auditoriyasi va uslubiga bog'liq. "Insha'Allah", "Bismillah" kabi diniy realiyalardan foydalanishda mos yondashuv tanlash matnning turiga, kommunikativ maqsadiga va auditoriyaning darajasiga bevosita bog'liq. Masalan, "*Wudu*" – namozdan oldin bajariladigan yuvinish – tahorat. "*Before prayer, Muslims perform a ritual cleansing called wudu, which involves washing specific parts of the body*". Tarj.: "*Namozdan oldin musulmonlar 'tahorat' deb ataluvchi marosimiy poklanish amalini bajaradilar; bu muayyan tana a'zolarini yuvishni o'z ichiga oladi (muallif tarjimasi)*". Bu yerda "ritual cleansing" – g'arb madaniyatida tushunarli bo'lgan ekvivalent termin, "wudu" esa qavs ichida asl atama sifatida kiritilgan. Bu adaptatsiya va tushuntirishning birgalikdagi strategiyasi hisoblanadi.

Islomiy diskurs tarkibi muqaddas matnlar, va'z-nasihatlar, diniy ilmiy-ommabop matnlar, diniy publitsistik matnlarlar va duo matnlaridan tarkib topadi. Albatta, har bir realiyaning ifodalanishi ularni qaysi matn turida qo'llashga bogliq. Va'z matnlari va diniy publitsistik matnlarda bu leksikaning ifodalanishiga nisbatan turlicha yondashuvlar qo'llaniladi. Quyida ushbu ikki asosiy kontekstda so'z qo'llashda afzal deb hisoblanadigan strategiyalar asoslab beriladi.

1. Va'z matnlarida afzal yondashuv – izohli tarjimadan foydalanish

Va'z matnlari odatda tinglovchiga ruhiy ta'sir ko'rsatish, diniy g'oyalarni chuqur singdirish va hissiy jihatdan ilhomlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bunday kontekstda realiyalarning izohli ifodalanishi eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Diniy formulalarning literal tarjimasi ko'pincha ularning ruhiy konnotatsiyasini to'liq yetkazolmaydi, shuning uchun izohli tarjima orqali iboraning ma'naviy va ruhiy qatlamlari saqlanadi. Va'zxon ba'zan qo'shimcha izohlar kiritishi, diniy atamalarining mazmunini kengroq ochib berishi kerak. Masalan, *taqvo* so'zini faqat *piety* deb emas, balki *piety, fear va consciousness of God* tarzida tushuntirib berishi mumkin. Shunday yondashuv **ruhiy va diniy konnotatsiyani saqlash, hissiy ta'sirni yo'qotmaslik** imkonini beradi.

2. Diniy publitsistik matnlarda afzal yondashuv – *adaptatsiyalashgan leksikadan foydalanish*

Ilmiy-ommabop matnlar (masalan, maqolalar, bloglar, diniy jurnallar uchun yozilgan materiallar) esa ko‘proq keng ommaga, jumladan, diniy bo‘lmagan yoki boshqa madaniyat vakillariga ham mo‘ljallangan bo‘lib, bu yerda asosiy maqsad – tushunarlik va madaniy adekvatlikni ta’minlashdir. Shu sababli, arabcha iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish emas, balki ularning funksional ma’nosini moslashtirib tarjima qilingan leksikadan foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuv madaniy adaptatsiya deb ataladi. Bu usul, ayniqsa, g‘arbiy yoki sekulyar auditoriyalar uchun qulayroq bo‘ladi, chunki u og‘ir diniy terminologiyadan foydalanishdan qochadi va bu yerda muhim jihat – tushunarlik. Agar matnda o‘quvchi uchun begona bo‘lgan so‘zlar (masalan, arabcha diniy atamalar) ko‘p bo‘lsa, matn qiyin tushuniladi. Shuning uchun muallif ko‘pincha o‘sha atamani mos inglizcha ekvivalenti bilan almashtiradi yoki madaniy jihatdan mos shaklda ifodalaydi. Shu bilan birga, stilistik moslashuv ham kerak bo‘ladi, chunki publitsistik matnlar sodda, ravon va qiziqarli bo‘lishi lozim.

Tarjima strategiyasini tanlashning asosiy mezonlari

Kontekst	Afzal strategiya	Asosiy sababi
Va’z matnlari	Izohli tarjima	Ruhiy va diniy konnotatsiyani saqlash, hissiy ta’sirni yetkazish
Diniy publitsistik matnlar	Madaniy adaptatsiya	Tushunarlik, madaniy moslik va stilistik moslashuv

M.Beyker, H.Gazala va boshqa tilshunoslar fikriga tayangan holda, tarjimada din, madaniyat va til chambarchas bog‘liqligini unutmaslik zarur. Shu bois, islomiy diskursda foydalanganda leksika tanlashda matn turiga alohida e’tibor bergan holda va’zlar yoki diniy publitsistik matnlarda madaniy realiyalarni o‘zgartirmasdan, balki ularni izohli tarjima, transliteratsiya yoki madaniy adaptatsiya orqali ifodalashi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ingliz islomiy diskursida realiyalar qanday ifodalanishi, tarjima jarayonida ularning semantik va pragmatik jihatdan qanday o‘zgarishga uchrashi, shuningdek, ular orqali islomiy g‘oyalarni yetkazishda qanday strategiyalar qo‘llanilishini aniqlashga qaratildi. Tahlil natijalari ingliz islomiy matnlarida realiyalarning ko‘p hollarda transliteratsiya, izohli tarjima yoki kontekstga mos almashtirish yo‘li bilan ifodalanishini ko‘rsatdi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi islomiy matnlarda arab tilidan kirib kelgan diniy tushunchalar, masalan, *ummah*, *sunnah*, *taqwa*, *jannah*, *zakah* kabi realiyalar o‘z mazmunini to‘liq saqlab qolish uchun ko‘pincha aynan shakl (transliteratsiya)da beriladi. Bu esa o‘quvchi auditoriyasiga ularning chuqur diniy va madaniy mazmunini anglash imkonini beradi. Shu bilan birga, realiyalarning ba’zilariga kontekstual izohlar yoki mos inglizcha ekvivalentlar berilishi ham kuzatiladi, bu esa madaniyatlararo aloqa samaradorligini oshirishda muhim vosita

boʻlib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilidagi diniy matnlar tarjimasi va talqinida realiyalarni anglash, ularni toʻgʻri yetkazish, va madaniy adekvatlikni taʼminlash boʻyicha tilshunoslikda chuqurroq ilmiy yondashuv zarurligini koʻrsatadi. Tadqiqotdagi kontekstual va lingvopragmatik tahlillar shuni anglatadiki, ingliz islomiy diskursi faqat diniy tushunchalar emas, balki madaniy merosning ham faol targʻibotchisidir. Vaʼzlar va ommabop islomiy diniy matnlarda diniy realiyalardan foydalanishda matnning turi, kommunikativ maqsadi va auditoriya salohiyatini ham inobatga olish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdel Haleem, M. A. S. (2001). *Understanding the Qurʻan: Themes and style*. I.B. Tauris.
2. Abdel-Wahab Mohamed Khalifa. (2017). *The socio-cultural determinants of translating modern Arabic fiction into English: The (re)translations of Naguib Mahfouz's Awlād Hāratinā* (Doctoral dissertation, University of Leeds).
3. Abdelaal Noureldin Mohamed. (2019). Subtitling of culture-bound terms: Strategies and quality assessment. *Heliyon*, 5, e01411. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2019.e01411>
4. Al-Kharabsheh, A. (2002). Translating the Qurʻan: Challenges and prospects. *Translation Journal*, 6(3).
5. Al-Munajjid, M. S. (n.d.). Everything is permissible unless proven prohibited. *IslamQA*.
6. Arnol'd, I. V. (1986). *Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazika*. Vysshaya shkola.
7. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
8. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (n.d.). Fatwa. In *Encyclopaedia Britannica*.
9. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (n.d.). Hajj. In *Encyclopaedia Britannica*.
10. Brown, J. A. C. (2009). *Hadith: Muhammad's legacy in the medieval and modern world*. Oxford University Press.
11. Cruse, D. A. (2000). *Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics*. Oxford University Press.
12. El-Sharif, A. (2011). *A linguistic study of Islamic religious discourse: Conceptual metaphors in the Prophetic tradition* (Doctoral dissertation, Queen Mary University of London).
13. Esposito, J. L. (2003). *The Oxford dictionary of Islam*. Oxford University Press.
14. Esposito, J. L. (2015). *What everyone needs to know about Islam*. Oxford University Press.
15. Firestone, R. (2016). Muslim-Jewish relations. In *Oxford Research Encyclopedia of Religion*. Oxford University Press.
16. Fyodorov, A. V. (2002). *Osnovy obshchey teorii perevoda*. Filologiya Tri.
17. Ghazala, H. (1995). *Translation as problems and solutions*. Dar El-Ilm Lilmalayin.
18. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. Routledge.
19. Imam Muslim. (1954). *Sahih Muslim. Kitab al-Sawm*.
20. Ischenko, I. (2012). Difficulties while translating realia. *Visnyk Dnipropetrovskoho universytetu imeni Alfreda Nobelia. Seriya "Filolohichni nauky"*, (1), 273–276.
21. IslamReligion.com. (n.d.). The concept of Ummah in Islam.
22. Khaulah bint Yahya. (2019). 6 things to remember when saying Basmalah.
23. Kobenko, Y., & Tarasova, E. (2015). Peculiarities of translation realonyms into German. In *Proceedings of the XV International Conference "Linguistic and Cultural Studies: Traditions and Innovations"*.
24. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
25. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Brill.
26. Qadhi, Y. (2015). Did the 4 main Sahaba emigrate?
27. Qadhi, Y. (2021). *The importance of halal and haram in a Muslim's life* [Video]. YouTube.
28. Riaz, S., & Ghayyas, M. (2023). A Shariah perspective study on the concept of halal food. *Journal of Social Sciences Review*.
29. Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. Harcourt, Brace.

30. Shair Ali Khan. (2016). The distinction between term and word: A translator and interpreter problem and the role of teaching terminology. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 232, 696–704. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.095>
31. Tursunov, U., Muxtorov, J., & Rahmatullayev, Sh. (1992). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. O'zbekiston.
32. Uluqov, N. M. (1997). *O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi*. Tashkent.
33. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English*. John Benjamins.
34. Vlahov, S., & Florin, S. (1970). *Neprevodimiye v perevode. Realii*. Moscow.
35. Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality*. MIT Press.

REFERENCES

1. Abdel Haleem, M. A. S. (2001). *Understanding the Qur'an: Themes and style*. I.B. Tauris.
2. Abdel-Wahab Mohamed Khalifa. (2017). *The socio-cultural determinants of translating modern Arabic fiction into English: The (re)translations of Naguib Mahfouz's Awlād Hāratinā* (Doctoral dissertation, University of Leeds).
3. Abdelaal Noureldin Mohamed. (2019). Subtitling of culture-bound terms: Strategies and quality assessment. *Heliyon*, 5, e01411. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2019.e01411>.
4. Al-Kharabsheh, A. (2002). Translating the Qur'an: Challenges and prospects. *Translation Journal*, 6(3).
5. Al-Munajjid, M. S. (n.d.). Everything is permissible unless proven prohibited. *IslamQA*.
6. Arnol'd, I. V. (1986). *Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazika*. Vysshaya shkola.
7. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. Routledge.
8. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (n.d.). Fatwa. In *Encyclopaedia Britannica*.
9. Britannica, T. Editors of Encyclopaedia. (n.d.). Hajj. In *Encyclopaedia Britannica*.
10. Brown, J. A. C. (2009). *Hadith: Muhammad's legacy in the medieval and modern world*. Oxford University Press.
11. Cruse, D. A. (2000). *Meaning in language: An introduction to semantics and pragmatics*. Oxford University Press.
12. El-Sharif, A. (2011). *A linguistic study of Islamic religious discourse: Conceptual metaphors in the Prophetic tradition* (Doctoral dissertation, Queen Mary University of London).
13. Esposito, J. L. (2003). *The Oxford dictionary of Islam*. Oxford University Press.
14. Esposito, J. L. (2015). *What everyone needs to know about Islam*. Oxford University Press.
15. Firestone, R. (2016). Muslim-Jewish relations. In *Oxford Research Encyclopedia of Religion*. Oxford University Press.
16. Fyodorov, A. V. (2002). *Osnovy obshchey teorii perevoda*. Filologiya Tri.
17. Ghazala, H. (1995). *Translation as problems and solutions*. Dar El-Ilm Lilmalayin.
18. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. Routledge.
19. Imam Muslim. (1954). *Sahih Muslim. Kitab al-Sawm*.
20. Ischenko, I. (2012). Difficulties while translating realia. *Visnyk Dnipropetrovskoho universytetu imeni Alfreda Nobelja. Seriya "Filolohichni nauky"*, (1), 273–276.
21. IslamReligion.com. (n.d.). The concept of Ummah in Islam.
22. Khaulah bint Yahya. (2019). 6 things to remember when saying Basmalah.
23. Kobenko, Y., & Tarasova, E. (2015). Peculiarities of translation realonyms into German. In *Proceedings of the XV International Conference "Linguistic and Cultural Studies: Traditions and Innovations"*.
24. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. Prentice Hall.
25. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating*. Brill.
26. Qadhi, Y. (2015). Did the 4 main Sahaba emigrate?
27. Qadhi, Y. (2021). *The importance of halal and haram in a Muslim's life* [Video]. YouTube.
28. Riaz, S., & Ghayyas, M. (2023). A Shariah perspective study on the concept of halal food. *Journal of Social Sciences Review*.

29. Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. Harcourt, Brace.
30. Shair Ali Khan. (2016). The distinction between term and word: A translator and interpreter problem and the role of teaching terminology. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 232, 696–704. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.095>
31. Tursunov, U., Muxtorov, J., & Rahmatullayev, Sh. (1992). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. O'zbekiston.
32. Uluqov, N. M. (1997). *O'zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi*. Tashkent.
33. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English*. John Benjamins.
34. Vlahov, S., & Florin, S. (1970). *Neprevodimiye v perevode. Realii*. Moscow.
35. Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality*. MIT Press.